

BO'G'IN TAHLILI VA SINTEZINI RIVOJLANTIRISHDA HARAKATLI-DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH

Yadgarova Iroda Ikromovna

Toshkent “Yuksalish” maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21988993>

Annotatsiya. Mazkur tezisda boshlang'ich sinf o'quvchilarida bo'g'in tahlili va sintezi ko'nikmalarini rivojlantirishda harakatli-didaktik o'yinlardan foydalanish masalasi yoritilgan. O'qish jarayonida bo'g'inning boshlang'ich yoki yakuniy fonemasini tushirib qoldirish kabi xatolarni kamaytirishda o'yinli mashg'ulotlarning metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Ushbu maqsadda “Bo'g'inli sirpanchiq”, “Quvnoq parashut”, “Uchqur samolyot” va “Paroxod keldi” nomli harakatli-didaktik o'yinlar tavsiya etilgan. Mazkur o'yinlarda o'quvchilarning ko'rish, eshitish, talaffuz va harakat faoliyatlarini uyg'unlashtirish orqali tovushlarni ketma-ket idrok etish, ularni birlashtirish va yaxlit bo'g'in hosil qilish ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, bo'g'in, bo'g'in tahlili, bo'g'in sintezi, fonema, fonemik anglash, o'qish savodxonligi, harakatli-didaktik o'yin, o'quv motivatsiyasi, savod o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bo'g'inlarni o'qish jarayonida ayrim tovushlarni, ayniqsa bo'g'inning boshlang'ich yoki yakuniy fonemasini tushirib qoldirish holatlari kuzatiladi. Mazkur qiyinchilikni bartaraf etishda bo'g'in tahlili va sintezini mexanik takrorlash asosida emas, balki harakatli va o'yinli mashg'ulotlar orqali tashkil etish samarali vositalardan biri sifatida qaralishi mumkin. Shu maqsadda “Bo'g'inli sirpanchiq”, “Quvnoq parashut”, “Uchqur samolyot” va “Paroxod keldi” kabi harakatli-didaktik o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi.

“Bo'g'inli sirpanchiq” o'yinida doskaga sirpanchiq tasviri joylashtiriladi. Sirpanchiq bo'ylab yuqoridan pastga qarab bo'g'in hosil qiluvchi harflar ketma-ket joylashtiriladi. Tayoqcha uchiga quvnoq bola tasviri biriktiriladi. O'quvchi bolakayni sirpanchiq bo'ylab harakatlantirar ekan, har bir uchragan tovushni ketma-ket talaffuz qiladi va tovushlarni birlashtirib bo'g'in hosil qiladi. Masalan, m-a-k → mak.

“Quvnoq parashut” o'yinida tayoqcha uchiga parashutdan sakrayotgan bola tasviri biriktiriladi. O'quvchi parashutning yuqoridan pastga harakatlanishi davomida yo'lda uchraydigan tovushlarni ketma-ket talaffuz qiladi va ularni birlashtiradi. Mazkur mashq tovushlarning ketma-ketligini saqlash hamda ularni yaxlit fonetik birlikka aylantirish ko'nikmasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Uchqur samolyot” o'yinida samolyot tasviri gorizontaal yo'nalishda, osmon manzarasi fonida joylashtirilgan tovushlar bo'ylab harakatlantiriladi. O'quvchi samolyot harakatlanishi davomida uchragan tovushlarni ketma-ket talaffuz qilib, ularni bo'g'inga birlashtiradi.

“Paroxod keldi” o'yinida esa paroxod dengiz tasviri ustidagi tovushlar bo'ylab gorizontaal yo'nalishda harakatlantiriladi. O'quvchi paroxodning harakat yo'nalishi bo'yicha tovushlarni izchil talaffuz qiladi va yakunda hosil bo'lgan bo'g'inni yaxlit o'qiydi.

Mazkur o'yinlarning muhim jihati shundaki, ularda ko'rish, eshitish, talaffuz va harakat faoliyatlari birgalikda qo'llanadi. O'quvchi tovushlarni shunchaki ketma-ket o'qibgina qolmay, ularning fazoviy harakatini ham kuzatadi. Bu esa tovushlarning ketma-ketligini saqlash, ularni birlashtirish va hosil bo'lgan bo'g'inni yaxlit idrok etishga yordam beradi. Ayniqsa, bo'g'inning boshlang'ich yoki yakuniy tovushini tushirib qoldiradigan o'quvchilarda “tovush → harakat →

talaffuz → birlashtirish” ketma-ketligini tashkil etish muhimdir. Masalan, ma → mak, gu → gul, no → non kabi mashqlarda o‘quvchi bo‘g‘inga qo‘shilgan yakuniy tovushni vizual va kinestetik jihatdan ham idrok etadi. O‘yinlarning syujetli va harakatli tashkil etilishi o‘quvchilarning darsdagi qiziqishi hamda o‘quv motivatsiyasini oshirishi mumkin. Natijada bo‘g‘in tahlili va sintezi mashqlarida o‘quvchilarning faol ishtiroki ta‘minlanadi.

Shunday qilib, harakatli-didaktik o‘yinlardan foydalanish bo‘g‘in tahlili va sintezi jarayonini tashkil etishning samarali usullaridan biri bo‘lib, ayniqsa tovushlarni ketma-ket birlashtirish va bo‘g‘in tarkibidagi fonemalarni to‘liq idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim metodik imkoniyat yaratadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Anthony, J. L., & Francis, D. J. Development of Phonological Awareness. *Current Directions in Psychological Science*, 2005, 14(5), 255–259.
2. Catts, H. W., Fey, M. E., Zhang, X., & Tomblin, J. B. Estimating the Risk of Future Reading Difficulties in Kindergarten Children: A Research-Based Model and Its Clinical Implementation. *Language, Speech, and Hearing Services in Schools*, 2001, 32(1), 38–50.
3. Ehri, L. C., Nunes, S. R., Willows, D. M., Schuster, B. V., Yaghoub-Zadeh, Z., & Shanahan, T. Phonemic Awareness Instruction Helps Children Learn to Read: Evidence From the National Reading Panel’s Meta-Analysis. *Reading Research Quarterly*, 2001, 36(3), 250–287
4. Teaching Children to Read: An Evidence-Based Assessment of the Scientific Research Literature on Reading and Its Implications for Reading Instruction. National Institute of Child Health and Human Development, 2000.
5. National Reading Panel. Phonemic Awareness Instruction. In: *Teaching Children to Read: Reports of the Subgroups*. National Institute of Child Health and Human Development.
6. Snowling, M. J. Reading Disorders and Dyslexia. *Current Opinion in Pediatrics*, 2005.
7. Lonigan, C. J., Schatschneider, C., & Westberg, L. Identification of Children’s Skills and Abilities Linked to Later Outcomes in Reading, Writing, and Spelling. National Early Literacy Panel.